

RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.12570850>

Fatilloev Farrux Farhod o'g'li

BuxDU, Iqtisodiyot va turizm fakulteti

3-2IQT-22 guruh talabasi

Annotatsiya

Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyot sharoitida yoshlar tadbirkorligi va uni rivojlantirish uchun maqbul muhitni shakllantirishning zarurligi yoritilgan.

Kalit so'zlar

yoshlar tadbirkorligi, biznes jarayonlarini amaliy o'rganish, ilmiy tadqiqotlar, tadbirkorlik infratuzilmasi, ta'lim siyosati, qo'llab-quvvatlash infratuzilmasi, bilim va ko'nikmalarni rivojlantiruvchi kurslar, tadqiqot faoliyatiga jalb etish

Abstract

This article describes the need to create an optimal environment for youth entrepreneurship and its development in the digital economy.

Key words

youth entrepreneurship, practical study of business processes, scientific research, entrepreneurship infrastructure, educational policy, support infrastructure, courses that develop knowledge and skills, involvement in research activities

Kirish

Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlardan bosh maqsad mintaqalarda ishbilarmonlik muhitini tubdan yaxshilash va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun qulay muhitni yaratish, shuningdek, mintaqalarda mazkur faoliyatni takomillashtirish asosida iqtisodiy samaradorlikka erishish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi.

Ana shu maqsadda mamlakatimizda bir qancha me'yoriy hujjatlar qabul qilinib, unda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish, uni qo'llabquvvatlash chora-tadbirlari rejalashtirilgan. Jumladan, 2021 yil 21 apreldagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llabquvvatlash chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-5088-sonli qarorlari, Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 avgustdagi "O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi "Yoshlar – kelajagimiz" jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" 669-son qarori, 2021 yil 18 yanvardagi "O'zbekistonda

yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 23-sonli qarori Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 maydagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi hamda Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash to'g'risida" gi [294](#)-sonli qarorlarini sanab o'tishimiz mumkin¹⁷⁷.

Bugungi kunda mamlakatimizda kichik biznesni rivojlantirishda yoshlar tadbirkorligiga ustuvorlik berish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Rivojlangan mamlakatlar amaliyoti shuni ko'rsatadiki, aynan kichik biznes iqtisodiyotning asosiy rivojlantirish omili bo'lib, mamlakatda shuningdek raqobatbardoshlikni rivojlantirish, aholi ehtiyojini samarali qondirishni ta'minlashga qodir.

Jamiyat barqarorligi va demokratik asoslarning rivojlanishidan manfaatdor bo'lgan, o'rta mulkdorlar sinfining ishonchli shakllanishi va kengayishida – yangiliklarni tez o'zlashtiruvchi, qobiliyatli yoshlar tadbirkorlar qatlamining katta qismini tashkil etadi.

Yoshlar bilan olib boriladigan ijtimoiy-iqtisodiy ishlar bugungi kundagi dolzarb bo'lib, yoshlarni mehnat faoliyatiga maksimal darajada jalb qilish va ularning bandligini oshirishni taqazo etadi.

Asosiy qism

Bugungi kundagi ijtimoiy shart-sharoitlar xususiyatlari jamiyatimizning farovonligi va madaniy darajasi bilan bog'liq. Biroq, hayot kechirish darajasining va yashash sifatining ortishi ta'lim-tarbiya jarayonini yengillashtirib qolmaydi, balki uni murakkablashtiradi va mashaqqatli qiladi.

Olib borgan tadqiqotlarimiz yoshlarda tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, maqbul muhitni rivojlantirish bo'yicha izlanishlar va kuzatishlar olib borilib, unda jamiyatdagi shart-sharoitlar, yoshlarni ta'limda va jamiyatdagi o'rni, ularning intilishlari, qobiliyatlari, dunyoqarashlari va shu kabi bir qator ko'rsatkichlar o'rganilib, tegishli xulosalar chiqarildi.

¹⁷⁷ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalarini faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash choratadbirlari to'g'risida" gi PQ-5088-sonli qarori. <https://lex.uz/doss/5383002>. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 avgustdagi "O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi «Yoshlar — kelajagimiz» jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" gi 669-son qarori. <http://www.kattakurgon.uz/uz/node/511>. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida" gi [23](#)-sonli qarori. <https://lex.uz/doss/5234746>. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 maydagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi hamda Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash to'g'risida" gi [294](#)-sonli qarori. <https://www.norma.uz/>

Yosh Tadbirkor University hamkorlari



1-rasm. Yosh tadbirkorlarning biznes hamkorlari¹⁷⁸

Ilmiy tadqiqotlar va statistik ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, mehnatga layoqatli aholining tadbirkorlikka moyil qismi 1015 foizni tashkil etadi. Biroq, tadbirkorlik faoliyati uchun qobiliyati mavjud bo'lsa, soliq va boshqa davlat qonunlari doirasida imtiyozlar bo'lsa, qo'llab-quvvatlash yo'llari to'g'risida xabardor bo'lsa yanada ko'proq yoshlar tadbirkor bo'lishni istaydi.


Tadbirkorlik sub'ektlari tarkibiga – tadbirkorlik va daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug'ullanish istagida bo'lgan yoshlar tadbirkorligi sub'ektlari hisoblangan 18 yoshga to'lgan 30 yoshdan oshmagan yoshlar ham kiradi. Lekin yoshlar tadbirkorligini tadqiq etgan adabiyotlar o'rganilganda 15 yoshdan 35 yoshgacha bo'lgan yoshlar ham bu qatlamga kiritilib o'rganilganligini kuzatishimiz mumkin.

Yoshlar tadbirkorlik borasidagi bilim, ko'nikma va malakalarni ta'lim jarayonlarida, muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatayotgan tadbirkorlar bilan uchrashuvlarda, bevosita biznes jarayonlarini amaliy o'rganishda, turli treninglarda va shu kabi bir qator yo'nalishlar orqali o'zlashtirishlari mumkin.

Yoshlarda tadbirkorlikka jalb etish, tadbirkorlik muhitini yaxshilashda - tadbirkorlik ta'limi tizimi, ilmiy tadqiqotlar, tadbirkorlik infratuzilmasi va ta'lim siyosati, tadbirkorlik tarmoqlari alohida ahamiyat kasb etadi. Shu o'rinda aytib o'tish lozimki, ta'lim tizimi ham yoshlar tadbirkorlik muhitini shakllanishida

¹⁷⁸ <https://online.pubhtml5.com/xdnp/ntqr/>

tadbirkorlik faoliyatini egallashda katalizator vazifasini bajarib, u yoshlarning innovatsion tadbirkorligini shakllantirish jarayonini rivojlanishiga yordam beradi, shuningdek yoshlar tadbirkorligini faollashtirib, uning uzluksizligini ta'minlaydi. Yoshlarda tadbirkorlik madaniyatining yo'qligi yoshlarning "yashirin" tadbirkorligini rivojlanishiga olib keladi.



1-diagramma. Raqamli iqtisodiyotga asoslangan tadbirkorlikning asosiy belgilari[6]

Sohada olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishda bir qator muammolar mavjudki, ularni to'g'ri bartaraf etishni taqozo etadi. Jumladan, mazkur muammolarga:

bilimli, harakatchan va tirishqoq yoshlarni katta ish haqi olish maqsadida mamlakatdan boshqa davlatlarga chiqib ketishi;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish bo'yicha qonunchilik bazasini yanada rivojlantirishga ehtiyojni borligi;

yoshlar tadbirkorligini rivojlantirish hamda uni qo'llab-quvvatlash infratuzilmasining rivojlanmaganligi;

yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga doir ma'lumotlar, yangiliklar va axborot bilan ta'minlashning pastligi;

bu qatlam tabiiy yoshlardan iborat bo'lganligi sababli, ularda sohaga oid yetarli tajribalarni rivojlanmaganligi;

yangi, yengil ko'nikma va malakani talab etadigan, nisbatan arzon ish o'rinlariga ehtiyojni yuqoriligi va boshqa shu kabilar. Xulosa va takliflar Hududlarda yoshlar tadbirkorligini rivojlantirishning ijobiy muhitini shakllantirish bo'yicha olib borgan tadqiqotlarimizdan kelib chiqqan holda, sohani rivojlantirish uchun quyidagilarni tavsiya etamiz:

yoshlar uchun tadbirkorlik bilim va ko'nikmalarini rivojlantiruvchi kurslarini tashkil etish;

Yuqoridagi tavsiyalarimiz yoshlarni tadbirkorlik faoliyatiga jalb etish, ularda tadbirkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish va mazkur muhitni ijobiy qiyofasini shakllantirishda o'zining bir qator ijobiy samarasini beradi. Jumladan, yangi marralarga erishishga intilish, ko'plab vaziyatlarni erkin tahlil eta olish, tashqi muhit o'zgaruvchanligiga moslashuvchanlikni oshib borishi, o'z-o'ziga bo'lgan tanqiddan kelib chiqib yangi rivojlanish yo'llarini ishlab chiqish va qo'llash, muvaffaqiyatsizliklardan ijobiy xulosalar chiqarishga o'rganish darajalarini ortishida ko'rish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 21 apreldagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo'llab-quvvatlash choratadbirlari to'g'risida"gi PQ-5088-sonli qarori. <https://lex.uz/doss/5383002>

2. Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 16 avgustdagi "O'zbekiston yoshlar ittifoqi huzuridagi «Yoshlar – kelajagimiz» jamg'armasi faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 669-son qarori. <http://www.kattakurgon.uz/uz/node/511>.

3. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 18 yanvardagi "O'zbekistonda yoshlarga oid davlat siyosatini 2025 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi 23-sonli qarori. <https://lex.uz/doss/5234746>.

4. Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 10 maydagi "Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasi hamda Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi to'g'risida nizomlarni tasdiqlash to'g'risida"gi 294-sonli qarori. <https://www.norma.uz/>

5. Лопатина Р.Ф. Социально-культурные условия формирования мотивации студенческой молодежи к предпринимательской деятельности

[Электронный ресурс] // Российская государственная библиотека: [сайт]. – УРЛ: [хттп://длпб.рсл.ру/01006751585](http://длпб.рсл.ру/01006751585)

6. Xabibullayevich, U. L., Nabijanovich, B. D., & Ibragimovna, F. E. (2020). Increasing effectiveness of economic education processis basis for the development of qualification of entrepreneurship. *Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR)*, 9(3), 210-215.

7. Ubaydullaev , L. .; Ergasheva , F. . Razvitie predprinimatelskix навьков u studentov - kak faktor preodoleniya problem molodogo predprinimatelstva. *OI* 2021, 2, 446-456.

8. Farhod o'g'li, F. F. . (2023). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKDA MARKETING FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH. *Scientific Impulse*, 1(6), 508–511. Retrieved from <http://nauchniyimpuls.ru/index.php/ni/article/view/4440>

9. Fatilloev, F.F. o'g'li. (2023). RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA QISHLOQ HUDUDLARIDA OILAVIY TADBIRKORLIK FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHLARI. *Educational Research in Universal Sciences*, 2(2), 84–90. Retrieved from <http://erus.uz/index.php/er/article/view/1691>

10. Farhod o'g'li, F. F. . (2023). Raqamli Iqtisodiyot Sharoitida Tadbirkorlik Faoliyatida Kreativlikni O'Rni. *Miasto Przyszłości*, 36, 66–67. Retrieved from <http://miastoprzyszlosci.com.pl/index.php/mp/article/view/1468>

11. The Role of Small Business and Private Entrepreneurship in the Economic Development of the Country ZA Qayimova, FF Fatilloev - EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION ..., 2023 - inovatus.es